

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02.30.12. 2019. K.T.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

NURMANOVA MOXIRA LAPAS QIZI

**ALIFATIK KARBON KISLOTALARINING SIRT-FAOL
HOSILALARINI OLINISHI, KOLLOID-KIMYOVIY XOSSALARI
VA QO‘LLANILISHI**

02.00.11 - Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Nurmanova Moxira Lapas qizi

Alifatik karbon kislotalarining sirt-faol hosilalarini olinishi, kolloid-kimyoviy xossalari va qo‘llanilishi..... 3

Нурманова Мохира Лапас кызы

Получение поверхностно-активных производных алифатических карбоновых кислот, их коллоидно-химические свойства и применение 21

Nurmanova Moxira Lapas qizi

Synthesis, colloid-chemical properties and application of surface-active derivatives of aliphatic carboxylic acids 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.02.30.12. 2019. K.T.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

NURMANOVA MOXIRA LAPAS QIZI

**ALIFATIK KARBON KISLOTALARINING SIRT-FAOL
HOSILALARINI OLINISHI, KOLLOID-KIMYOVIY XOSSALARI
VA QO‘LLANILISHI**

02.00.11 - Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K737 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.ionx.uz va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxkamov Ravshan Raximovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy oponentlar:

Abdikamalova Aziza Baxtiyarovna
kimyo fanlari doktori, professor

Sidiqov Abduljalil Sidiqovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/30 12.2019 K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning «17» iyul 2025 yil soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90, e-mail: ionxanruz@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «3» iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil «3» iyuldagi 7-raqamli tarqatish bayonnomasi reestri).



B. S. Zakirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

D.S. Salixanova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

D. Eshmetov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda sanoatning turli tarmoqlarining jadal rivojlanishi sirt faol moddalarga (SFM) bo'lgan talabni oshirmoqda, ularni ishlab chiqarilishi va iste'molining keskin ko'payishiga olib kelmoqda. O'zbekistonda ham turli ishlab chiqarish sohalarining jadal rivojlanishi tufayli yuqori samarali emulgatorlik, stabilizatorlik, solyubilizatorlik, ho'lovchi, yuvuvchi va yuvish xususiyatiga ega sirt faol moddalarga bo'lgan talab yuqori bo'lib ushbu mahsulotlar asosan chet ellardan valyuta hisobiga sotib olib kelinmoqda. Shuning uchun ham yurtimizda mahalliy xomashyolardan alifatik karbon kislotalari asosida yuqori samarali, tabiatda oson bioparchalanuvchan va atrof muhit uchun zararsiz yangi sirt-faol moddalar sintez qilish, kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish va sanoatda qo'llash sohalarini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda jahonda yangi sirt faol moddalarni sintez qilish, ularning xususiyatlarini o'rganish, sanoatning turli sohalariga tadbiiq qilish va ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari faol ravishda olib borilmoqda. Bu borada mahalliy xomashyolar asosida yangi SFMlar sintez qilish, ularning suvda eruvchan sirt faol hosilalarini olish va ko'pik hosil qilish qobiliyati, emulsion barqarorlikka ta'sirini o'rganish, sirt faollik xossalarini o'rganish asosida eng muqobilini tanlash orqali qo'llash sohalarini aniqlash hamda tabiatga mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni oldini olishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda mavjud bo'lgan mahalliy xomashyolardan yangi sirt-faol moddalar olish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yo'nalishida «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada ekologik toza, biologik yumshoq yangi sirt-faol moddalar sintez qilish, dispers tizimlarning barqarorligi va samaradorligiga ta'sirini o'rganish hamda qo'llash sohalarini aniqlab, amaliyotga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, hamda 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805 son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

Alifatik karbon kislotalarning yangi sirt-faol hosilalarini olish, xossalarini o'rganish va sanoatda qo'llash hozirgi kunda juda ham dolzarb bo'lib bunday birikmalar o'zining biologik yumshoqligi va oson bioparchalanishi bilan turli mamlakatlar olimlarini ilmiy ishlar olib borishga undamoqda. Alifatik karbon kislotalar asosida yangi sirt-faol moddalarni olish va xossalarini o'rganish jahonning ko'pgina yetakchi ilmiy markazlari tomonidan olib borilmoqda. Bunday ilmiy ishlar ayniqsa Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Ispaniya, Germaniya, Shvedsiya, Xitoy, Hindiston, Rossiya kabi davlatlarning yetakchi olimlari tomonidan olib borilmoqda. Alifatik karbon kislotalarning yangi sirt-faol hosilalarini olish, kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish va ishlab chiqarishda qo'llash bo'yicha bir qancha olimlar, jumladan A.V. Protopopov, S.G. Ivanova, S.A.Kuznetsov, U.N. Zaynutdinov, G.G. Lutfullina, K.S. Gusayeva, K.E. Martinov, H.A. Ziyafaddin, I.T.Ismailov, A.P. Dremuk, P. Kumar, V. Bansallar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Xitoylik olimlar X. Zhao, J. Wang, L. Zhang, X. Kong, Y. Li tomondan yog' kislotalarini karboksillash, sulfurlash va eterifikatsiyalash usullari yordamida sirt faol moddalar sintez qilish va kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda akademik K.S. Axmedov rahbarligida talab etilgan kolloid-kimyoviy xususiyatlarga ega SFMlar yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan ilmiy maktab yartilgan bo'lib, uning vakillari: E.A. Aripov, S.S. Xamrayev, S.N.Aminov, A.A. Agzamxodjaev, I.D. Eshmetov, D.S. Salixanova, A.B.Abdikamalova, R.R. Maxkamov, F.M. Yusupov, Sh.A. Kuldasheva, Y.Y.Yakubov, B.Z. Adizov va boshqa olimlar ushbu maktabning rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Bu sohada alifatik karbon kislotalari asosida biologik yumshoq, tabiatda oson bioparchalanuvchan va atrof muhit uchun zararsiz yangi sirt-faol moddalar sintez qilish, kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish va sanoatning turli tarmoqlarida ishlatish yo'llarini topish bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlar juda ham kamligini qayd etish lozim. Ushbu dissertatsiya ishi alifatik karbon kislotalari asosida yangi bioparchalanuvchan sirt-faol moddalarni olish va kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish natijalari asosida ularni qo'llash sohasini aniqlashga qaratilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Umumiy va Noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Dispers tizimlarning texnologik xususiyatlarini yaxshilaydigan sirt faol moddalar yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Alifatik karbon kislotalar asosida yangi sirt faol

moddalar sintez qilish, ularning kolloid-kimyoviy xossalarini va ishlatilish sohalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy alifatik karbon kislotasi: olein kislotasi asosida yangi sirt faol moddalar sulfo olein kislotasining Li, Na, K tuzlari, bir atomli (metanol, butanol, geptanol) va ikki atomli (mono-, di-, trietilenglikol) spirtlar asosida murakkab efirlarining natriyli tuzlarini sintez qilish;

alifatik karbon kislotalari asosida sintez qilingan yangi sirt faol moddalarning kimyoviy tuzilishini va fizik xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullar yordamida ko'rsatib berish;

sintez qilingan yangi sirt faol moddalarning suvli eritmalaridagi va dispers sistemalaridagi kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish;

olingan yangi sirt faol moddalarning turli dispers tizimlarning barqarorligi va samaradorligiga ta'sirini o'rganish;

o'rganilgan yangi sirt faol moddalardan amaliyotda foydalanish uchun sanoatda qo'llash sohalarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida alifatik karbon kislotalar bo'lgan olein va palmitin kislotasi asosida sintez qilingan yangi sirt faol moddalar jumladan sulfo olein va sulfopalmitin kislotasining turli xil tuzlari va ularning bir va ikki atomli spirtlar bilan murakkab efirlari olingan.

Tadqiqotning predmeti olein va palmitin kislotalarini konsentrlangan sulfat kislotasi ishtirokida sulfurlash va ishqorlarning etanoli eritmasi yordamida neytrallab tuzlarini olish, sulfo olein kislotasini bir va ikki atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish va olingan mahsulotni natriy gidroksidning etanoli eritmasi ishtirokida neytrallab tuzlarini olish hamda sintez qilingan yangi sirt faol moddalarning kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish usullari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy va an'anaviy fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopiya, SEM, xromotografiya, modda elementlari tahlili) va kolloid-kimyoviy (tenziometriya, konduktometriya, refraktometriya) tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy olein kislotasini konsentrlangan sulfat kislotasi ishtirokida sulfurlash va olingan mahsulotni natriy gidroksid eritmasi bilan neytrallash reaksiyasi natijasida yuqori sirt faollik namoyon qiluvchi sulfo olein kislotasining tuzlari olingan;

sulfo olein kislotasini bir va ikki atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish va mahsulotni ishqorlarning etanoli eritmasi bilan neytrallash natijasida yangi sirt-faol moddalar, sulfo olein kislotasining murakkab efirlarining natriyli tuzlari sintez qilingan;

sulfo olein kislotasining ikki atomli spirtlar bilan olingan efirlari qatorida sirt faol moddalar molekulasidagi etoksil guruhlari sonining ortishi bilan sirt faolligining oshishi va mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasi qiymatining pasayishi isbotlangan;

sintez qilingan sulfo olein kislotasining murakkab efirlarining molekulasi

tarkibida ikkinchi alifatik uglevodorod zanjirining uzunligining ortishi bilan birikmalarning sirt faolligining ortishi aniqlangan;

SFMLarning kolloid-kimyoviy xossalari orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi, bunda birikmalar sirt faolligining ortishi bilan ko‘pik hosil qilish qobiliyati ortib borishi isbotlangan;

yangi SFMLarni rangli metallarni flotatsiya usulida boyitishda ko‘pirtiruvchilar tarkibida, kon yo‘llarida changni bostiruvchi kompozitsiyalar tarkibida va sement dispers tizimlarining barqarorligi va qotish vaqtini boshqarish uchun sanoatda qo‘llash sohalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

alifatik karbon kislotalarining yangi sirt faol hosilalarining rangli metallarni flotatsiya usulida boyitishda ko‘pirtiruvchi kompazitsiyalar tarkibida qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish imkoniyati yaratilgan;

kon-metallurgiya sanoati uchun sirt-faol moddalar asosida changni bostiruvchi kompozitsiyalar yaratilgan va ularning kon yo‘llaridagi changlarni bostirishda yuqori samaraga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan;

yangi olingan va o‘rganilgan sirt faol moddalar sement dispers tizimlarining barqarorligi va qotish vaqtini boshqarish uchun samarali ta’sirga egaligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy ishda qo‘llanilgan zamonaviy fizik va kimyoviy usullar – IQ spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, modda elementlari tahlili, xromotografiya va boshqa kolloid-kimyoviy, fizik-mexanik tahlil usullaridan foydalanilgani hamda tajriba sinovlari laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida o‘tkazilganligi, hamda “Olmaliq KMK” AJning misni boyitish fabrikasi sinov laboratoriyasining dalolalatnomasi bilan tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikamizdagi mahalliy xomashyolardan olingan yog‘ kislotalarini sulfurlash orqali olingan sulfo hosilalarining turli tuzlari va murakkab efirlarini sintez qilish usullari va optimal sharoitlarini aniqlash yangi sirt faol moddalar sintez qilish uchun asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, yog‘ kislotalarini sulfurlash va eterifikatsiyalash orqali yuqori sirt faollik namoyon qiluvchi SFMLar olish texnologiyasini ishlab chiqish, kimyo va kimyoviy texnologiya sohasida, bakalavrlar, magistrlar va doktorantlar tayyorlashda, oliy va maxsus ta’lim jarayonlarida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alifatik karbon kislotalarining sirt-faol hosilalarini olinishi, kolloid-kimyoviy xossalari va qo‘llanilishi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

alifatik karbon kislotalarining sirt faol hosilalari asosida ko‘pirtiruvchi kompazitsiyalar olish usuli «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish uchun mo‘ljallangan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxatiga kiritilgan («Olmaliq KMK» AJ ning 2024-yil 17-sentabrdagi 09-24/42-00024-son ma’lumotnomasi). Natijada, mahalliy olein kislotasi asosida BT-3, Butl,

FAB-9 ko'pirtiruvchi kompazitsiyalar olish imkonini beradi;

ko'pirtiruvchi BT-3, Butl, FAB-9 kompazitsiyalarni rudalarni boyitishda qo'llash usuli «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Olmaliq KMK» AJ Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish texnologik markazining 2024-yil 17-sentabrdagi, 09-24/42-00024-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, olingan ko'pirtiruvchi kompazitsiyasini 40 g/t miqdorida qo'llanilganda ruda tarkibidagi mis konsentratini 93,52% ga qadar boyitish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining asosiy natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot obyektlari va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilish holati, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Alifatik karbon kislotalarining sirt faol hosilalarini sintez qilish usullari, xossalari va qo'llanilishi”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlarda va patent nashrlarida chop etilgan ishlarning tahlili keltirilgan bo'lib, unda alifatik karbon kislotalar asosida sirt faol moddalar sintez qilish, kimyoviy tuzilishi va xossalari, ishlatilish sohalari hamda istiqbollari haqidagi izlanishlarning hozirgi holati berilgan.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili alifatik karbon kislotalarining yangi sirt faol hosilalari sintez qilish yo'llarini topish uchun yordam berdi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuningdek, mazkur ishda qo'yilgan maqsad va vazifalarni shakllantirishga yordam berdi.


Ikkinchi bob **“Tadqiqot obyektlari va usullari”** deb nomlanib unda yangi sintez qilingan sirt faol moddallarning tuzilishini va kolloid-kimyoviy xossalarni

tadqiq qilishda qo'llanilgan tadqiqot usullari, shuningdek, qo'llanilgan moddalar va reaktivlarning tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Olein kislotasining sirt faol hosilalarini sintez qilish va maqbul sharoitlarini aniqlash**» deb nomlangan uchinchi bobida, sirt faol moddalarni sintez qilish yo'llari keltirilgan. Sulfo olein kislotasining tuzlarini olishda birinchi bosqichda olein kislotasi va konsentrlangan sulfat kislotasini 1:1 nisbatda 60 °C haroratda 3 soat davomida doimiy aralashtirish natijasida sulfo olein kislotasi olindi. Sulfo olein kislotasi olishning reaksiya tenglamasi quyidagicha ifodalandi:




Olingan sulfo olein kislotasini metall gidroksidlari bilan 1:2 nisbatda xona haroratida 2 soat davomida neytralizatsiyalash natijasida sulfo olein kislotasining natriyli, kaliyli va litiyli tuzlari (SO-Li, SO-Na, SO-K) olindi:




Bu yerda Me = Li, Na, K.

Reaksiya natijasida sintez qilingan SFMlarni etanoldagi eritmasidan geptan yordamida cho'ktirib ajratib olindi. Cho'ktirish usulida ajratib olingan SFMlarni qoldiq erituvchilardan past bosim ostida haydash orqali tozalandi. Reaksiya unumi: sulfo olein kislotasining Na, K, Li li tuzlari uchun: 94, 92 va 90 % ga teng bo'ldi. Sulfo olein kislotasining bir atomli spirtlar (metanol, butanol, geptanol) bilan eterifikatsiya reaksiyasi orqali sulfo olein kislotasining murakkab efirlari olindi. Reaksiyani reagentlarning birga bir nisbatida, 70°C haroratda, elektrik aralashtirgichida 3 soat davomida aralashtirish bilan olib borildi:




Bu yerda R= -CH₃, -C₄H₉, -C₇H₁₅.

Sulfo olein kislotasining bir atomli spirtlar bilan murakkab efirlari va natriy gidroksidini 1:1 nisbatda etanoli muhitda xona haroratida 2 soat davomida aralashtirish natijasida sulfo olein kislotasining metanol, butanol, geptanol bilan murakkab efirlarining natriyli tuzlari (M-1, B-1, G-1) olindi:




Sulfo olein kislotasini ikki atomli spirtlar, mono, -di, -tri etilenglikollar bilan eterifikatsiya reaksiyasi orqali sulfo olein kislotasining murakkab efirlari olindi. Reaksiyani reagentlarning birga bir nisbatida, 80°C dan 120°C gacha haroratda minutiga 600 aylanish tezligida elektrik aralashtirgichda 3 soat davomida doimiy aralashtirish bilan olib borildi:




Bu yerda R= -CH₂CH₂OH, -(CH₂CH₂O)₂H, -(CH₂CH₂O)₃H.

Sintez qilingan sulfo olein kislotasining ikki atomli spirtlar bilan murakkab efirlari va natriy gidroksidini 1:1 nisbatda etanoldagi eritmasidan xona haroratida 2 soat davomida aralashtirish natijasida sulfo olein kislotasining mono, -di, -tri etilenglikollar bilan murakkab efirlarining natriyli tuzlari (EG, DEG, TEG) olindi:



Hosil bo'lgan reaksiya mahsulotlarini etanoldagi eritmasidan geptan bilan cho'ktirib tozalandi. Cho'ktirish usulida ajratib olingan birikmalarni qoldiq erituvchilardan past bosim ostida haydash usulida tozalandi va olingan moddalarni eksikatorida vakuum ostida quritildi.

Sintez qilingan yangi SFMLarning kimyoviy tuzilishini aniqlash maqsadida birikmalarning elementlari tahlili va IQ-spektrlari olindi. Sintez qilingan sulfo olein kislotasining natriyli tuzining IQ-spektri quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Sulfo olein kislotasi natriyli tuzining infra qizil spektri

Olingan sulfo olein kislotasining natriyli tuzini IQ spektrida olein kislotadan farqli ravishda yangi cho‘qqilarning paydo bo‘lganini ko‘rish mumkin va unda 1092 sm^{-1} sohada sulfonat guruhiga tegishli yutilish chiziqlari, $1450\text{-}1400\text{ sm}^{-1}$ sohalarida korboksilat guruhiga tegishli yutilish chiziqlari kuzatildi.


Disertatsiyaning «**Olein kislotasining sirt faol hosilalarining kolloid-kimyoviy xossalari**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida, sintez qilingan SFMlarning kolloid-kimyoviy xossalari o‘rganilgan va olingan natijalar tahlil qilingan. Jumladan, bu bobda sintez qilingan birikmalarning suvli eritmalarining sirt tarangligi, ko‘pik hosil qilish qobiliyati, mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasi va emulsiyalarni barqarorlashtirish qobiliyati aniqlangan. Sintez qilingan yangi SFMlarning suvli eritmalarining sirt tarangligi turli konsentratsiyalarda temperaturaga bog‘liq holda o‘rganildi. O‘rganilgan yangi sirt faol moddalarning suvli eritmalarining sirt tarangligi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

SFMlarning suvli eritmalarining sirt tarangligi

| SFM | T, K | SFMlar turli konsentratsiyali (%) suvli eritmalarining sirt tarangligi (mN/m) | | | | | | | | | |
|-------|------|---|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| | | 5 | 2,5 | 1,25 | 0,62 | 0,31 | 0,16 | 0,08 | 0,04 | 0,02 | 0,01 |
| SO-Li | 293 | 35,11 | 35,62 | 36,10 | 37,06 | 41,95 | 45,45 | 47,04 | 49,33 | 52,21 | 56,16 |
| | 313 | 32,08 | 32,90 | 34,21 | 36,12 | 40,26 | 43,17 | 45,11 | 47,26 | 50,50 | 54,72 |
| | 333 | 30,95 | 31,84 | 32,01 | 34,45 | 37,61 | 41,01 | 43,06 | 45,00 | 49,05 | 52,25 |
| SO-Na | 293 | 32,21 | 32,50 | 34,13 | 36,74 | 40,21 | 42,50 | 47,28 | 48,86 | 51,48 | 53,17 |
| | 313 | 29,95 | 31,05 | 31,94 | 34,23 | 38,91 | 43,32 | 44,60 | 47,00 | 49,48 | 51,50 |
| | 333 | 27,22 | 28,01 | 30,58 | 32,68 | 36,05 | 40,25 | 40,48 | 44,00 | 48,01 | 51,20 |
| SO-K | 293 | 30,21 | 31,50 | 32,13 | 35,94 | 38,21 | 41,50 | 43,28 | 47,86 | 49,48 | 51,17 |
| | 313 | 28,64 | 29,05 | 30,44 | 33,23 | 35,21 | 39,32 | 41,60 | 43,00 | 47,48 | 48,50 |
| | 333 | 26,12 | 27,01 | 28,58 | 30,68 | 33,05 | 37,25 | 38,48 | 42,00 | 45,01 | 46,20 |
| M-1 | 293 | 30,2 | 32,1 | 33,2 | 34,5 | 36,7 | 41,2 | 46,8 | 47,12 | 48,45 | 50,3 |
| | 313 | 29,7 | 31,5 | 32,6 | 33,4 | 36,7 | 41,2 | 46,8 | 47,00 | 47,6 | 49,1 |
| | 333 | 28,4 | 31,0 | 31,8 | 32,6 | 35,5 | 39,6 | 44,5 | 45,50 | 46,78 | 48,7 |
| B-1 | 293 | 27,6 | 28,0 | 30,2 | 32,1 | 34,0 | 39,2 | 42,3 | 43,35 | 44,23 | 45,8 |
| | 313 | 26,4 | 27,1 | 29,7 | 31,5 | 33,6 | 38,4 | 41,7 | 42,0 | 42,76 | 43,0 |
| | 333 | 25,3 | 26,4 | 28,4 | 30,7 | 31,9 | 36,3 | 39,5 | 41,05 | 42,4 | 42,4 |
| G-1 | 293 | 26,1 | 27,6 | 28,1 | 29,2 | 32,1 | 37,6 | 40,6 | 42,56 | 43,21 | 44,9 |
| | 313 | 26,9 | 27,0 | 27,9 | 28,0 | 31,2 | 36,8 | 39,2 | 41,2 | 42,80 | 44,1 |
| | 333 | 25,1 | 26,6 | 28,1 | 29,2 | 30,7 | 36,0 | 38,5 | 39,6 | 40,25 | 41,7 |
| EG | 293 | 25,0 | 26,0 | 27,7 | 31,8 | 33,8 | 36,2 | 38,0 | 39,20 | 41,77 | 43,0 |
| | 313 | 24,6 | 25,1 | 27,0 | 30,6 | 32,1 | 35,8 | 37,3 | 38,80 | 40,51 | 42,2 |
| | 333 | 23,9 | 24,7 | 26,5 | 29,9 | 31,4 | 34,6 | 36,9 | 37,80 | 39,00 | 41,6 |
| DEG | 293 | 25,2 | 27,0 | 31,1 | 32,3 | 35,2 | 39,4 | 42,1 | 43,5 | 44,00 | 44,2 |
| | 313 | 24,9 | 26,5 | 30,6 | 31,8 | 34,7 | 38,1 | 40,5 | 41,3 | 42,65 | 43,5 |
| | 333 | 24,1 | 25,4 | 29,4 | 31,0 | 33,2 | 37,0 | 39,8 | 40,72 | 41,01 | 41,8 |
| TEG | 293 | 24,5 | 26,7 | 28,8 | 29,4 | 30,4 | 33,8 | 39,4 | 41,5 | 40,09 | 44,5 |
| | 313 | 23,7 | 25,1 | 27,9 | 28,7 | 29,6 | 32,7 | 38,6 | 40,6 | 42,56 | 43,4 |
| | 333 | 23,0 | 24,3 | 26,7 | 28,1 | 28,4 | 31,4 | 36,1 | 39,2 | 41,2 | 41,9 |


Olingan natijalardan ko‘rinadiki, o‘rganilgan SFMlarning suvli eritmalarining konsentratsiyasi ortishi bilan ularning sirt faolligi ortib boradi. Bunda sirt faol moddalarning konsentratsiyasi 0,01% dan 5% gacha o‘rganilganda sirt taranglikni 26-32 mN/m gacha pasaytirishi aniqlandi. Shuningdek, o‘rganilgan SFMlarning suvli eritmalarida harorat ko‘tarilishi bilan sirt taranglikning pasayishi kuzatildi. Bunda sirt faol modda SO-Na, B-1, DEG eritmalarida 20 °C haroratda sirt taranglik 32,21; 27,6; 25,2 mN/m gacha, 60 °C haroratda esa 27,22; 25,3; 24,1 mN/m gacha pasayganini ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi 2-rasmda SO-Na misolida sirt taranglikning haroratga bog‘liqlik grafigi berilgan.



2-rasm. SO-Na suvli eritmalarini sirt tarangligining konsentratsiya va temperaturaga bog‘liqligi: 1-293K, 2-303K, 3-313K, 4-323K, 5- 333K

Olingan natijadan (1-rasm) ko‘rinadiki, suvli eritma haroratining ortishi bilan o‘rganilgan birikmaning sirt faolligi oshib boradi. Ushbu natijani haroratning ortishi bilan suvli eritma yuzasiga SFM molekulari adsorbsiyasining kuchayishi bilan tushuntirish mumkin. Eritmaning harorati ortganida suv va SFM molekulari orasidagi gidrofob ta’sirlar kuchayadi va SFM molekulari tezroq suv yuzasiga adsorbsiyalanadi va suvli eritma sirt tarangligining kamayishi kuzatildi.

Sulfo olein kislotasining sirt faol hosilalarining qarama-qarshi ionlarining va birikmalar molekulasidagi ikkinchi uglevodorod zanjiri uzunligining sirt faollikka ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



A

B


3-rasm. SO-Li, SO-Na, SO-K SFMlar qarama-qarshi ionlarining (A) va M-1, B-1, G-1 SFMlar molekulasidagi ikkinchi uglevodorod zanjiri uzunligining (B) sirt-faollikka ta’siri

Yuqorida keltirilgan 3(A)-rasmdagi grafikda olingan natijalardan ko‘rinadiki, Li<Na<K qatorida sirt faollik qarama-qarshi ionlar radiusining ortishi bilan oshib boradi. Bu natijani ion radiusining ortishi bilan uning atrofidagi gidrat qobig‘ining kichrayib borishi bilan tushuntirish mumkin.

Sulfo olein kislotasini bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish natijasida olingan murakkab efirlarining tuzlari suvli eritmalarining sirt tarangligi o‘rganildi. Ushbu o‘rganilgan birikmalar sulfo olein kislotasi molekulasiga ikkinchi uglevodorod zanjiri kiritish natijasida ikkita uglevodorod zanjiriga ega bo‘lgan sirt faol moddalardir.

Yuqoridagi 3(B)-rasmdagi grafikda sulfoolein kislotasining metil, butil, heptil efirining natriyli tuzlari ikkinchi uglevodorod zanjiri uzunligining sirt faollikka ta‘siri keltirilgan. Unga ko‘ra M-1<B-1<G-1 ketma-ketlikda o‘rganilgan birikmalarning sirt faolligi oshib boradi. Olingan natija ikkinchi uglevodorod zanjiri uzunligining ortishi bilan gidrofob ta‘sirlarning kuchayishi bilan bog‘liqdir.

Sulfo olein kislotasining sirt faol hosilalari molekulasidagi etoksil guruhlar sonining sirt-faollikka ta‘siri o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm.
SFMLar molekulasidagi etoksil guruhlar sonining sirt-faollikka ta‘siri

Yuqorida keltirilgan 4-rasmdagi grafikda olingan natijalardan ko‘rinadiki, EG<DEG<TEG qatorida SFM molekulasidagi etoksil guruhlar sonining ortishi bilan birikmalarning sirt faolligining ortishi aniqlandi. O‘rganilgan birikmalar qatorida sirt faollikning ortishini ushbu qatorda molekullarning difilligining ortib borishi bilan tushuntirish mumkin.


Sulfo olein kislotasi asosida olingan yangi SFMLarning ko‘pik hosil qilish qobiliyati o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi 2- jadvalda keltirilgan.

SFMLarning suvli eritmalarining turli konsentratsiyalardagi ko‘pik hosil qilish qobiliyati va vaqtga nisbatan ko‘pikning barqarorligi

| SFM | SFM konsen-tratsiyasi, C% | Vaqt davomida (minut) / Ko‘pikning hajmi (ml) | | | | | | B, (ko‘pik barqarorligi) | K/E, (ko‘pik/ eritma nisbati) |
|-------|---------------------------|---|-------|-------|-------|-------|-------|--------------------------|--------------------------------|
| | | 0 | 1 | 3 | 5 | 10 | 20 | | |
| SO-Na | 5 | 282,0 | 280,0 | 272,0 | 270,0 | 265,0 | 250,5 | 0,89 | 2,82 |
| | 2,5 | 278,0 | 264,0 | 259,5 | 255,5 | 240,5 | 230,5 | 0,85 | 2,78 |
| | 1,25 | 271,5 | 260,5 | 258,5 | 255,0 | 243,5 | 237,5 | 0,88 | 2,71 |
| | 0,62 | 265,0 | 263,5 | 262,0 | 257,5 | 246,0 | 230,0 | 0,86 | 2,65 |
| | 0,31 | 250,0 | 245,0 | 243,0 | 235,0 | 225,5 | 220,0 | 0,88 | 2,50 |
| SO-K | 5 | 285,0 | 281,0 | 278,0 | 274,0 | 265,0 | 255,5 | 0,91 | 2,79 |
| | 2,5 | 280,0 | 275,0 | 272,5 | 270,5 | 265,5 | 255,5 | 0,91 | 2,73 |
| | 1,25 | 279,5 | 269,5 | 268,5 | 265,0 | 250,5 | 245,5 | 0,89 | 2,71 |
| | 0,62 | 265,0 | 268,5 | 262,0 | 257,5 | 243,0 | 230,0 | 0,88 | 2,60 |
| | 0,31 | 256,0 | 250,5 | 248,5 | 245,0 | 232,0 | 220,0 | 0,87 | 2,52 |
| B-1 | 5 | 279,0 | 277,0 | 272,0 | 270,0 | 265,0 | 250,5 | 0,89 | 2,79 |
| | 2,5 | 270,0 | 264,0 | 259,5 | 255,5 | 240,5 | 230,5 | 0,85 | 2,70 |
| | 1,25 | 268,5 | 260,5 | 258,5 | 255,0 | 243,5 | 237,5 | 0,88 | 2,685 |
| | 0,62 | 265,0 | 263,5 | 262,0 | 257,5 | 246,0 | 230,0 | 0,86 | 2,65 |
| | 0,31 | 250,0 | 245,0 | 243,0 | 235,0 | 225,5 | 220,0 | 0,88 | 2,50 |
| G-1 | 5 | 284,0 | 280,0 | 274,0 | 274,0 | 260,0 | 255,5 | 0,91 | 2,84 |
| | 2,5 | 280,0 | 280,0 | 275,5 | 270,5 | 265,5 | 255,5 | 0,90 | 2,80 |
| | 1,25 | 275,5 | 273,5 | 270,5 | 265,0 | 250,5 | 245,5 | 0,89 | 2,75 |
| | 0,62 | 260,0 | 268,5 | 262,0 | 257,5 | 243,0 | 230,0 | 0,88 | 2,60 |
| | 0,31 | 252,0 | 250,5 | 248,5 | 245,0 | 232,0 | 220,0 | 0,87 | 2,52 |
| DEG | 5 | 285,0 | 281,0 | 270,8 | 269,1 | 262,6 | 255,2 | 0,85 | 2,85 |
| | 2,5 | 280,6 | 280,2 | 276,6 | 263,9 | 252,0 | 245,1 | 0,87 | 2,80 |
| | 1,25 | 273,4 | 272,1 | 265,0 | 256,7 | 249,1 | 231,8 | 0,84 | 2,73 |
| | 0,62 | 262,3 | 260,1 | 259,5 | 255,3 | 245,2 | 230,1 | 0,87 | 2,62 |
| | 0,31 | 250,1 | 248,1 | 243,2 | 240,2 | 230,8 | 220,1 | 0,88 | 2,50 |
| TEG | 5 | 288,0 | 285,0 | 281,0 | 278,0 | 270,0 | 265,5 | 0,92 | 2,88 |
| | 2,5 | 286,0 | 282,0 | 279,5 | 275,5 | 268,5 | 262,0 | 0,91 | 2,86 |
| | 1,25 | 280,4 | 275,6 | 271,4 | 267,3 | 261,8 | 255,7 | 0,91 | 2,80 |
| | 0,62 | 277,0 | 270,5 | 267,0 | 263,5 | 259,0 | 249,0 | 0,89 | 2,77 |
| | 0,31 | 260,0 | 255,4 | 248,7 | 245,0 | 232,0 | 220,0 | 0,84 | 2,52 |

Olingan natijalarda ko‘rinadiki, o‘rganilgan SFMlarning suvli eritmalarining konsentratsiyasini oshishi bilan ularning ko‘pik hosil qilishi qobiliyati va ko‘pikning barqarorligi ortib borishi aniqlandi.

Sulfo olein kislota tuzlarining suvli eritmaları hosil qilgan ko‘pikning hajmi va ko‘piklarning barqarorligi turli haroratlarda o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi 5-rasmda keltirilgan.





5- rasm. Sulfo olein kislota tuzlarining 0,5% li suvli eritmalarda turli haroratlarda (293-333 K) ko‘pikning barqarorligi (A) va ko‘pik hosil qilish qobiliyati(B)

5(A)-rasmda olingan natijalardan ko‘rinadiki, sulfo olein kislota tuzlarining suvli eritmalarida hosil bo‘lgan ko‘piklarning barqarorligi harorat oshib borishi bilan pasayib boradi. Bu natijani shunday izohlash mumkinki, harorat oshib borishi bilan ko‘pik plyonkasi ichidagi suvning oquvchanligini ortishi natijasida ko‘pik devori yuqalashib ko‘pik tezroq parchalanadi.

5(B)-rasmda olingan natijalardan ko‘rinadiki, sulfo olein kislota tuzlarining suvli eritmalarida harorat oshishi bilan ko‘pik hosil bo‘lishi ortadi. Ushbu o‘rganilgan SFMlarning suvli eritmasida harorat ta‘sirida havo/suyuqlik chegarasida birikmalarning adsorbsiyasi ortishi sababli ko‘pik hosil bo‘lishi ortadi. Yuqorida keltirilgan 3-rasmdagi grafikda olingan natijalardan ko‘rinadiki, Li<Na<K qatorida ko‘pik hosil qilishi qobiliyati va ko‘pikning barqarorligi ortib borishi aniqlandi. Bu natijani qarama-qarshi ionlar radiusining ortishi bilan uning atrofidagi gidrat qobig‘ining kichrayib borishi bilan tushuntirish mumkin.

Sulfo olein kislotasining bir atomli spirtlar bilan olingan murakkab efilrlarining suvli eritmalarida turli haroratlarda ko‘pik hosil qilish qobiliyati va olingan ko‘piklarning barqarorligi o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi 6-rasmda keltirilgan.



A

B

6- rasm. Sulfo olein kislotasining bir atomli spirtlar bilan murakkab efirlari tuzlarining 0,5% li suvli eritmalarida turli haroratlarda (293-333 K) ko'pikning barqarorligi (A) va ko'pik hosil qilish qobiliyati(B)

Yuqoridagi 6(A)-rasmda olingan natijalardan ko'rinadiki, harorat ortib borishi bilan ko'piklarning barqarorligi pasayib boradi. Ushbu natija harorat oshib borishi bilan ko'pik plyonkasi ichidagi suvning oquvchanligini tezlashishi va natijada ko'pik devori yupqalashib, tez parchalanishi bilan izohlandi. 6(B)-rasmda SFMlarning ko'pik hosil qilish qobiliyatiga haroratning ta'siri keltirilgan. Undan ko'rinadiki, SFMlarning suvli eritmalarida harorat oshishi bilan ko'pik hosil bo'lishi ortadi. Bu natijani harorat ortishi bilan SFM molekulalarining suyuqlik-havo chegarasida adsorbsiyasining kuchayishi bilan tushuntirish mumkin. M-1<B-1<G-1 qatorida SFMlarning ko'pik hosil qilish qobiliyatining ortishi kuzatildi. Bu natijani ushbu qatorda sirt faol moddalar molekulasidagi ikkinchi uglevodород zanjiri uzunligining ortib borishi bilan eritmada gidrofob o'zaro ta'sirlarning kuchayishi bilan izohlash mumkin.

Yangi SFMlar yordamida kungaboqar moyi asosida olingan emulsiyalarning 20°C haroratda saqlash vaqtida barqarorligi o'rganildi. Olingan natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Yangi SFMlar yordamida kungaboqar moyi asosida olingan emulsiyalarning 20°C haroratda saqlash vaqtida barqarorligi

| Saqlash vaqti, (kun) | Natriy lauril sulfat / kungaboqar moyi* emulsiyalarida emulsiya fazaning balandligi (mm) | SO-Na / kungaboqar moyi* emulsiyalarida emulsiya fazasi balandligi (mm) | B-1 / kungaboqar moyi* emulsiyalarida emulsiya fazaning balandligi (mm) | DEG / kungaboqar moyi* emulsiyalarida emulsiya fazaning balandligi (mm) |
|----------------------|--|---|---|---|
| 1 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 2 | 96 | 98 | 95 | 98 |
| 7 | 89 | 92 | 85 | 90 |
| 14 | 70 | 75 | 65 | 75 |

* - SFM 1% suvli eritmaları va kungaboqar moyi nisbati (7:3)

Bunda natriy lauril sulfat, SO-Na, B-1, DEG SFMLar yordamida kungaboqar moyi asosida olingan emulsiyalarning 20°C haroratda saqlash vaqtida barqarorligi 14 kun davomida kuzatildi. O'rganilgan SFMLarning moy bilan optimal nisbatlari topildi va 14 kun mobaynida barqaror emulsiya hosil qilgan SFM aniqlandi.

Dissertasiyaning «**Sintez qilib olingan SFMLarning qo'llanilish sohalari**» deb nomlangan beshinchi bobida sintez qilib olingan SFMLarning qo'llanilish sohalari aniqlangan. Yangi SFMLar asosida olingan ko'pirtiruvchi kompozitsiyalarni flotatsiya jarayonidagi samaradorligi Olmaliq KMKning misni boyitish fabrikasida sinovdan o'tkazildi. Olmaliq KMK misni boyitish fabrikasida o'tkazilgan tadqiqot va sinov natijalari 4-jadvalda ko'rsatilgan.

4-jadval

Yangi SFMLar asosida olingan ko'pirtiruvchi kompozitsiyalarni Olmaliq KMK AJning misni boyitish fabrikalarida flotatsiya sinov natijalari

| Mahsulot nomi | Mis, % | | | Ko'pirtiruvchi | Sarf miqdori (g/t) |
|----------------------|------------|-----------|------------------|----------------------|--------------------|
| | Chiqish, % | Tarkib, % | Ajratib olish, % | | |
| Birlamchi konsentrat | 17,8 | 2,8 | 91,14 | T-92 | 42 g/t |
| Qoldiq chiqindilari | 82,2 | 0,59 | 8,16 | | |
| Dastlabki ruda | 100 | 1,00 | 100 | | |
| Birlamchi konsentrat | 17,5 | 2,09 | 90,21 | FAB-9 | 40 g/t |
| Qoldiq chiqindilari | 82,5 | 0,05 | 9,79 | | |
| Dastlabki ruda | 100 | 0,40 | 100 | | |
| Birlamchi konsentrat | 18,4 | 2,04 | 92,01 | BT-3 | 40 g/t |
| Qoldiq chiqindilari | 81,6 | 0,04 | 7,99 | | |
| Dastlabki ruda | 100 | 0,41 | 100 | | |
| Birlamchi konsentrat | 11,8 | 3,24 | 93,52 | SFM kompozitsiya - 1 | 40 g/t |
| Qoldiq chiqindilari | 88,2 | 0,03 | 6,48 | | |
| Dastlabki ruda | 100 | 0,41 | 100 | | |
| Birlamchi konsentrat | 12,0 | 3,13 | 92,42 | SFM kompozitsiya - 2 | 20 g/t |
| Qoldiq chiqindilari | 88,0 | 0,04 | 7,58 | | |
| Dastlabki ruda | 100 | 0,41 | 100 | | |
| Birlamchi konsentrat | 24,9 | 1,47 | 90,70 | BUTL | 36 g/t |
| Qoldiq chiqindilari | 75,1 | 0,05 | 9,30 | | |
| Dastlabki ruda | 100 | 0,40 | 100 | | |

Yuqorida keltirilgan natijalar tahlili yangi yaratilgan preparatlarining flotatsiya jarayonidagi samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Yangi yaratilgan BT3, BUTL, FAB-9 preparatlari mis rudasini 90,21-92,01% gacha boyitdi. Yangi SFMLar asosidagi kompozitsiyalar esa mis rudasini 92,42 - 93,52% gacha boyitdi. Hozirda OKMKda amalda qo'llanilayotgan T-92 preparati esa mis rudasini 88,40 - 91,14 % gacha boyita oldi. Natijalar tahlili asosida, yangi yaratilgan preparatlarining flotatsiya jarayonidagi samaradorligi yuqoriligi va ular hozirda OKMKda qo'llanilayotgan T-92 preparatiga nisbatan ustunlikka egaligi aniqlandi.

Mahalliy xomashyolardan olingan SFMlarni dispers tizimlarda chang bostirishdagi samaradorligi o'rganildi. Sintez qilingan yangi sirt faol moddalar asosida chang bostirishda qo'llash uchun tayyorlangan namunalarimiz Jizzax sement zavodi tog'-kon yo'llarida, ishlab chiqarish jarayonidagi changlarni bostirishda, karyer yo'llaridagi ko'chma qumlarni bostirish uchun sinab ko'rildi. Olingan natijalar quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-Jadval

Mahalliy xomashyolardan olingan SFMlarni dispers tizimlarda chang bostirishdagi samaradorligi

| Kompozitsiya* | Kompozitsiya tarkibi | Tuproq yuzasida hosil qilingan qavatning xususiyati | Tuproqda hosil qilingan qavatning qalinligi (sm) | Hosil qilingan qavatning namlikni ushlab turish vaqti (kun) | Sarf miqdori 1 m ² maydon uchun (ml) |
|---------------|--|---|--|---|---|
| I | SFM M-1+GIPAA+CaCl ₂ | juda elastik | 1,5-2 | 12-13 | 500 |
| II | SFM B-1+ GIPAA+organik kislota+MgCl ₂ | elastik | 1-1,5 | 15-17 | 500 |
| III | SFM DEG-1+GIPAA+CaCl ₂ | o'rtacha elastik | 1,5-2,5 | 12-14 | 500 |
| IV | SFM DEG-1+GIPAA+MgCl ₂ | juda elastik | 1,5-2 | 15-20 | 500 |
| V | SFM DEG-1+GIPAN+MgCl ₂ | o'rtacha elastik | 1 | 10-12 | 500 |
| VI | SFM TEG-1+GIPAA+glitserin +MgCl ₂ | cho'ziluvchan elastik | 0,5-1 | 13-15 | 500 |

*-laboratoriya sharoitida olingan natijalar.

Ushbu SFM kompozitsiyalari tuproqqa sepilganda tuproqda hosil bo'lgan qavat qalinligi 2,5-3 sm gacha yetdi, qavatning elastiklik xususiyati ortdi, 20°C da tuproqdagi namlikni 15-20 kun davomida saqladi va 1m² maydonga 500 ml miqdorida sarflanishi aniqlandi. O'rganilgan yangi SFMlarni kompozitsiyalar tarkibida qo'llanganda chang bostirish samaradorligini oshirib berishi aniqlandi.

Yangi olingan SFMlarning plastifikatorlik xususiyatini aniqlash uchun ularni tamponaj eritmaları tarkibida sinab ko'rildi. Bunda tamponaj eritmalariga SFMlar qo'llanilganda eritmaların sirt bo'ylab yoyilishi, zichligi, qotish vaqtining boshlanishi va tugashiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, sement eritmasiga SO-Na, SO-K, B-1, G-1, DEG, TEG SFMlari qo'shilganda eritmaning yoyilish diametri 26-28 sm gacha va uning qotish vaqti 4,0-4,5 soatgacha uzaydi. Sementli tamponaj eritmalariga yangi sintez qilingan sirt faol moddalarni qo'shish natijasida eritmaların oquvchanligini oshirishga va qotish vaqtini uzaytirishga erishildi. Olingan natijalar asosida yangi sintez qilingan sirt faol moddalarni tamponaj eritmalar tarkibida oquvchanlikni va qotish vaqtini nazorat qilish uchun ishlatishga tavsiya qilindi.

XULOSALAR

1. Mahalliy alifatik karbon kislota bo'lgan olein kislotasi asosida yangi sirt faol moddalar sintez qilindi;

2. Olein kislotasini konsentrlangan sulfat kislotasi ishtirokida sulfurlash va olingan mahsulotni ishqorlar bilan neytrallash reaksiyasi natijasida yuqori sirt faollik namoyon qiluvchi sulfo olein kislotasining tuzlari olindi;

3. Sulfo olein kislotasini bir va ikki atomli spirtlar bilan eterifikatsiyasi va neytrallash natijasida yangi sirt-faol moddalar, sulfo olein kislotasining murakkab efirlarining tuzlari sintez qilindi;

4. Alifatik karbon kislotalari asosida sintez qilingan yangi sirt faol moddalarning kimyoviy tuzilishini va fizik xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullar yordamida ko'rsatib berildi;

5. Sintez qilingan sirt faol moddalar molekulari tuzilishining ularning eritmalarining kolloid-kimyoviy xususiyatlariga ta'siri bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi. Sulfo olein kislotasining ikki atomli spirtlar bilan efirlari qatorida sirt faol modda molekularining gidrofil qismidagi etilen glikol zanjiri uzayganda birikmalarning sirt faolligi oshishi va mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasi qiymatining pasayishi aniqlandi;

6. Sulfo olein kislotasining ishqoriy metall tuzlarida birikmaning qarama qarshi ionlari radiusining ortishi bilan birikmalarning sirt faolligining va emulsiyalarni barqarorlash qobiliyatining ortib borishi ko'rsatib berildi;

7. Sintez qilingan sulfo olein kislotasining murakkab efirlari molekulari tarkibida ikkinchi alifatik uglevodorod zanjirlarining uzunligining ortishi bilan birikmalarning sirt faolligining ortishi ko'rsatib aniqlandi;

8. Olingan yangi sirt-faol moddalar suvli eritmada mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasidan yuqori konsentratsiyalarda moyning suvdagi emulsiyasini barqarorlash samaradorligining ortishi ko'rsatib berildi;

9. O'rganilgan SFMlarning ko'pik hosil qilish qobiliyati bilan ularning sirt faolligi orasida o'zaro korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Bunda yangi olingan sirt-faol moddalarning suvli eritmalarining sirt faolligi va ko'pik hosil qilish qobiliyati dispers tizimning konsentratsiyasi va temperaturasi ortishi bilan ortib borishi ko'rsatib berildi.

10. Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar asosida yangi SFMlarni rangli metallarni flotatsiya usulida boyitishda ko'pirtiruvchilar tarkibida, changni bostiruvchi kompozitsiyalarda va sement dispers tizimlarining barqarorligi va qotish vaqtini boshqarish uchun sanoatda qo'llash sohalari topildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ 02/30.12.2019.К/Т.35.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

НУРМАНОВА МОХИРА ЛАПАСОВНА

**ПОЛУЧЕНИЕ ПОВЕРХНОСТНО-АКТИВНЫХ ПРОИЗВОДНЫХ
АЛИФАТИЧЕСКИХ КАРБОНОВЫХ КИСЛОТ, ИХ КОЛЛОИДНО-
ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЕ**

02.00.11 - Коллоидная и мембранная химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2024.1.PhD/K737.

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.ionx.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyouet» по адресу www.ziyouet.uz.

Научный руководитель: Махаммов Равшан Рахимович
доктор химических наук, ст.н.с.

Официальные оппоненты: Абдикамалова Азиза Бахтияровна
доктор химических наук, профессор
Сидиков Абдужалил Сидикович
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский химико-технологический институт

Защита состоится «17» июля 2025 года в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.02/3012.2019K/T.35.01 при Институте общей и неорганической химии по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (99871) 262-56-60; факс: (99871) 262-79-90, e-mail: ionxanruz@mail.ru.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии за №7, с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре (100170, г. Ташкент, ул. Мирзо-Улугбека, 77-а). Тел.: (99871) 262-56-60; факс: (99871) 262-79-90.

Автореферат диссертации разослан «3» июля 2025 года.
(Реестр протокола за № 7 от «3» июля 2025 года)



Б.С. Закиров

Председатель научного совета по присуждению
ученой степени, д.х.н., проф.

Д.С. Салиханова

Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., проф.

И.Д. Эшметов

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире бурное развитие различных отраслей промышленности увеличивает спрос на поверхностно-активные вещества (ПАВ), что приводит к резкому росту их производства и потребления. В Узбекистане, в связи с стремительным развитием различных производственных отраслей, наблюдается высокий спрос на поверхностно-активные вещества с высокой эффективностью, обладающие эмульгирующими, стабилизирующими, солюбилизующими, смачивающими, моющими и очищающими свойствами, в основном импортирующиеся из-за рубежа за валюту. Поэтому синтез новых высокоэффективных, легко биоразлагаемых и экологически безопасных поверхностно-активных веществ на основе алифатических карбоновых кислот из местного сырья, а также изучение их коллоидно-химических свойств и определение областей применения в промышленности имеет большое значение.

В настоящее время в мире активно ведутся научные исследования по синтезу новых поверхностно-активных веществ, изучению их свойств, внедрению в различных отраслях промышленности и разработки технологий производства. В этом направлении особое внимание уделяется синтезу новых ПАВ на основе местного сырья, получению водорастворимых производных с поверхностной активностью, исследованию их способности к пенообразованию, влиянию на стабильность эмульсий, а также изучению поверхностно-активных свойств с целью выбора наиболее эффективных соединений для различных областей применения. При этом особое значение придаётся минимизации возможного негативного воздействия на окружающую среду.

В Республике достигнуты научные и практические результаты по получению новых поверхностно-активных веществ из местного сырья. В третьем направлении Новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены важные задачи по «продолжению политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, предусматривается увеличение объёмов производства промышленной продукции в 1,4 раза»². В этой связи важное значение приобретает синтез экологически чистых, биологически мягких новых поверхностно-активных веществ, изучение их влияния на стабильность и эффективность дисперсных систем, определение сфер применения и внедрение в практику.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и в Постановлениях Президента Республики

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

Узбекистан № ПП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности», № ПП-4805 от 12 августа 2020 года «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки в области химии и биологии», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие научных исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. Получение новых поверхностно-активных веществ производных алифатических карбоновых кислот, их свойства и промышленное применение в настоящее время весьма актуальны, и такие соединения, в силу своей биологической мягкости и легкой биоразлагаемости, побуждают ученых разных стран проводить научные исследования в этой области. Получением новых поверхностно-активных веществ на основе алифатических карбоновых кислот и изучением их свойств занимаются многие ведущие научные центры мира. Особенно активно ведут такую научную работу ведущие ученые таких стран, как Япония, Великобритания, США, Испания, Германия, Швеция, Китай, Индия, Россия. Над получением новых поверхностно-активных веществ производных алифатических карбоновых кислот, изучением их коллоидно-химических свойств и применением в производстве работали ряд ученых, в том числе А.В. Протопопов, С.Г. Иванова, С.А. Кузнецов, У.Н. Зайнутдинов, Г.Г. Лутфуллина, К.С. Гусаева, К.Э. Мартынов, Х.А. Исследования проводили Х.А. Зияфаддин, И.Т. Исмаилов, А.П. Дремук, П. Кумар, В. Бансаллар. Также китайские ученые Х. Чжао, J. Wang, L. Zhang, X. Kong, Y. Li ведут научные исследования в области синтеза поверхностно-активных веществ и изучения коллоидно-химических свойств с использованием методов карбоксилирования, сульфуризации и этерификации жирных кислот.

